

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



***Илимий-методикалық журнал***

---

**2024**

**3/2-сан**

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы  
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының  
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлигі тәрепинен  
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.  
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

**3/2-сан 2024**

**июнь**

**Шөлкемлестириүшилдер:**

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,  
ФЗПИИ Қарақалпақстан филиалы**

**Редактор:**

**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ  
Нағмет АЙЫМБЕТОВ  
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ  
Сапардурды АБАЕВ  
Адхамжон АБДУРАШИТОВ  
Хайрула АЛЯМИНОВ  
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ  
Алишер АЛЛАМУРАТОВ  
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ  
Интизар АБДИРИМОВА  
Тұлқин АЛЛАЁРОВ  
Мариғжон АХМЕДОВ  
Умида БАХАДИРОВА  
Фарҳад БАБАШЕВ  
Ботир БОЙМЕТОВ  
Гулзода БОЙМУРОДОВА  
Шахло БОТИРОВА  
Маманазар ДЖУМАЕВ  
Аскар ДЖУМАШЕВ  
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,  
Қазақстан)  
Алишер ЖУМАНОВ  
Гүлнара ЖУМАШЕВА  
Холбай ИБРАГИМОВ  
Шохида ИСТАМОВА  
Умида ИБРАГИМОВА  
Лола ИСРОИЛОВА  
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,  
Қазақстан)  
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,  
Қазақстан)  
Меруерт ПАЗЫЛОВА  
Аскарбай НИЯЗОВ  
Сабит НУРЖАНОВ  
Захия НАРИМБЕТОВА

Хұшбоқ НОРБҮТАЕВ  
Улфат МАҲКАМОВ  
Уролбой МИРСАНОВ  
Сафо МАТЧОН  
Шукурилло МАРДОНОВ  
Камаладин МАТЯКУБОВ  
Арзы ПАЗЫЛОВ  
Барлықбай ПРЕНОВ  
Раъно ОРИПОВА  
Бахтиёр РАХИМОВ  
Фурқат РАЖАБОВ  
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)  
Дилшода САПАРБАЕВА  
Феруза САПАЕВА  
Зайниддин САНАҚУЛОВ  
Қаххор ТУРСУНОВ  
Амина ТЕМИРБЕКОВА  
Нурзода ТОШЕВА  
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ  
Тажибай УТЕБАЕВ  
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ  
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ  
Амангелди КАМАЛОВ  
Воҳид КАРАЕВ  
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА  
Ризамат ШОДИЕВ  
Зафар ЧОРШАНБИЕВ  
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ  
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ  
Тармиза ХУРВАЛИЕВА  
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ  
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ  
Гулрухсор ЭРГАШЕВА  
Гавхар ЭШЧАНОВА  
Қонысбай ЮСУПОВ



## МАЗМУНЫ

## ТИЛ ХӘМ ӘДЕБИЯТ

Safo Matjon. Shukur Sa'dulla she'riyatida so'z dinamikasi va estetik ta'sirchanlik .....	7
Suyunov B.T., Shofqorov A.M. So'zlarda ma'nno taraqqiyoti va tibbiy terminlar semantikasi .....	12
Abduqahhorova X.A. Tarixga oid terminlar va ularning yasalishi .....	21
Жарасбаев Н.А. Түркі халықтары фольклорындағы ортақ сарындардың зерттелуі жайынан .....	25
Дусбаева Н.Н. Грамматическая интерференция в речи студентов изучение языка .....	34

## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Radjapov U.R., Xakimdjanova K., Sabirov S.A., Omarov T. O'qituvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'naliishlari .....	39
Лафасов Б.Ж. Тарабаларнинг касбий тайёргарлигини педагогик кластер ёндашув асосида такомиллаштиришда малакавий педагогик амалиётнинг ўрни .....	47
Суяров А.М. Инновацион ёндашув асосида таълим муассасасида бошқарув фаолиятини ташкил этиш шарт-шароитлари .....	55
Muxammadiyev Q.S. Pedagogik innovatsion klaster tizimida kasbga yo'naltirishning nazariy asosi .....	60
Baxtiyorova S.I., Ganjayeva Z.O. Oly ta'limga muassasalarida o'quv jarayoni samaradorligini oshirishning klaster texnologiyalari .....	65
Qodirova N.Z. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonida o'qituvchining faoliyati .....	71
Urunkova D. M. Jamiyatda inklyuzivlik sharoitida inklyuziv madaniyatni oshirish asoslari .....	80
Xalimov Z.X. Professional ta'limga va kasb-hunar o'rgatishda baholash va sertifikatlashning roli .....	85
Турдиев Ж.Р. Тарабаларнинг ижтимоий компетентлигини индивидуал ёндашув асосида ривожлантиришнинг педагогик жиҳатлари .....	89
Komilova Sh.R. Oly ta'limga raqamli texnologiyalarning o'rni va ahamiyati .....	94
Qurbanmurotov E.A. O'quv jarayonida tabiiy fanlarni fanlararo bog'lab o'qitish texnologiyasi .....	100
Файзуллаев Р.Х., Сайфисея Ю.Ў. Олий таълим муассасаларида тарабаларнинг мустакил таълим олиш кўнинмаларини шаклланишида ўқитувчи ва талаба муносабатлари .....	104
Рахматуллаева Д., Рахматов Я. Таълимни рақамлаштириш асосида професионал таълим тизимининг ўқитиш сифатини ошириш омиллари .....	111
Xalimov Z.X. Professional ta'limga va kasb-hunar o'rgatishda baholash va sertifikatlashning roli .....	118
Amanova M.A. Professional ta'limga mazmunini integrativ-modulli yondashuv asosida takomillashtirish .....	122
Amanova M.A. Professional ta'limga muassasalarida integrativ-modulli yondashuv asosida "50810101-qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va servisi texnik texnologii" kasbi o'quvchilarning umumiy texnik tayyorgarligini rivojlantirishning metodik ta'minotini takomillashtirish .....	127
Karimova M.B. Tashkilotni boshqarishda ayol va erkak rahbarlarning liderlik masalasi .....	137
Бахтиёрөв Б. Б. Раҳбар психология компетентлигини ўрганишнинг илмий-назарий асослари .....	142
O'rinnov U.A., Raxmatova D.S. Talabalarni kasbiy kompetentligini rivojlantirish mazmuni .....	153
Ro'ziyeva Z.S. Pedagogik kasbiy kompetentligi va emotsiyonal jarayonlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari .....	160
Mirzakulova N.I. Oly ta'limga muassasalarida talabalarida kasbiy malakanı shakllantirishda pedagogik amaliyotning o'rni va ahamiyati hamda takomillashtirish yo'naliishlari .....	166
Ergasheva G.S. Bo'lajak biologiya o'qituvchisining kasbiy-metodik tayyorgarligiga qo'yiladigan zamonaviy talablar .....	174



# ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

## SHUKUR SA'DULLA SHE'RIYATIDA SO'Z DINAMIKASI VA ESTETIK TA'SIRCHANLIK

*Safo Matjon*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti “O’zbek adabiyotshunosligi kafedrasи professori, pedagogika fanlari doktori*

**Tayanch so’zlar:** alliteratsiya, syujet, ertak, she’riyat, ta’lim, estetika.

**Ключевые слова:** аллитерация, сюжет, сказка, поэзия, воспитание, эстетика.

**Key words:** alliteration, plot, fairy tale, poetry, education, aesthetics.

Bolalik qisqa muddatda kechsa-da, uning taassurotlari, yodi umrbod esda qoladi. Insonning kelajak taqdiriga, hayot yo’liga ko’p hollarda bolaligidayoq tamal toshi qo’yilishi hech kimga siremas. Shunga ko’ra umrimizning ilk davrini o’ziga xos dunyo deyish mumkin. Qisqa, ammo chin ma’noda murakkab va jozibador bo’lgan bu dunyoning badiiy in’ikosi hisoblangan bolalar adabiyoti bir qarashda kattalar uchun ermakka o’xshab tuyuladi. Shuning uchun bo’lsa kerak, ba’zan nazar-pisand ham qilinmaydi.

Aslida-chi? Nafsilmrini aytganda, bolalar adabiyotining jamiyat ma’naviy hayoti va vatan istiqbolidagi roli beqiyos ulug’dir. Bolalar yozuvchisining kitobxon oldidagi mas’ulyati ham, baxti ham shuning bilan belgilanadi. Uning kitobxonlari doirasi kattalar adabiyoti kitobxonlariga nisbatan ancha keng. Bolalarga bag’ishlab yaratilgan asarlarni kichiklar ham, kattalar ham birdek sevib o’qishi, zavqlanishining sababi bolalik tuyg’usining insonni bir umr tark etmasligida, chegara bilmasligidadir.

O’zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo’shgan Shukur Sa’dullaning 50-60-yillari bolalarini cheksiz quvonchlarga chulg’agan:

*Yomg’ir yog’aloq*

*Yam-yashil o’iloq,*

*Endi ekinlar*

*Chiqarar qulog.* (“Yomg’ir yog’aloq”)



Yoki:

*Oydin, Lola g'oz bo'ldi,  
O'yinimiz soz bo'ldi,  
Bolta bir o'zi tulki,  
Turishi bo'ldi kulkি. (“Tulki bilan g'ozlar”)*

deb boshlanuvchi dilkash va quvnoq, o'ynoqi she'rлarini allaqachon nevara-chevarali bo'lib ketgan nuroniy boboyu buvijonlar ham sog'inch bilan eslab yurishadi.

Shoir she'rлarida ko'rgan-kechirganlarini shunchaki qalamga olmaydi. Ochiq-oydin pand-nasihat ham qilmaydi. Aksincha hayotda o'ziga ta'sir qilgan, boshqalarga, jumladan, bolalarga ham bir qadar tanish manzara-holatlar, voqeahodisalar, narsa-buyumlarni tasvir markaziga oladi-da xulosa chiqarishni o'quvchining o'ziga qoldiradi. Maqsad she'r mutolaasidan barchanining bir xil xulosa chiqarishi emas, balki fikrlashga da'vatkorligidir. O'quvchiga bo'lган bu ishonch uni chorlaydi.

“Yomg'ir yog'aloq” she'rining birinchi to'rtligida yomg'ir yoqqach, o'tloqlarning yam-yashil bo'lishi, ekinlarning quloq chiqarishi to'g'risida umumiylumot beriladi. Ikkinci to'rtlikda esa yomg'ir yog'ishi bilan yuzaga kelgan manzara-holat qalamga olinadi. To'g'rirog'i, kitobxon diqqati tanish bo'lsa-da, unchalik e'tibor beravermaydigan manzaraga jalg qilinadi. Ya'ni yomg'ir suvlarining tarnovlardan oshib, shoshib tushib, ariqlarga quyilishi haqida gap ketadi. Ammo u oddiy ma'lumot emas. Tarnovlardan tushayotgan suvning shoshqaloqligi kichik kitobxon ruhiyatiga juda mos keladi. Shu bois, u kitobxonga ma'lumot berish bilan birga zavq ham bag'ishlaydi, tuyg'ularini junbushga keltiradi.

Misralardagi hijozarning qisqaligi (har misra 5 bo'g'indan iborat) va to'q qofiyalarning (yog'aloq-o'tloq-qulooq; oshib-shoshib-toshib va hokazo) qo'llanishi mutolaaga yengillik tug'diradi, misralarning ovoz uzmay, bir zarb bilan o'qilishi – so'z dinamikasi she'rning ta'sirchanligini ta'minlaydi.

Shoir asarlarining yutug'ini tayin etgan omillardan yana biri qofiyadosh so'zlardan tashqari misralarning ichida ham alliteratsiyadan - o'xshash, hamohang undosh tovushlardan unumli va o'rinli foydalanishidir. Masalan:

*Men qushchaman-kichkina,  
Tillarim chuchukkina.  
Ola-chipor qanotim,  
Bilsangiz-chittak otim. («Chittak»)*



She'rdagi «qushchaman», «kichkina», «chuchukkina», «ola-chipor», «chittak» so'zlaridagi ch tovushining takror-takror kelishi asarga raxonlik bag'ishlaydi, qolaversa, bolaning talaffuzini to'g'rakashiga turki beradi, og'zaki nutqini ravon qiladi.

Kichkintoylarning ruhiy olami va yosh xususiyatlarini chuqur bilgan Shukur Sa'dulla asarlarining katta qismini quruq ta'rif-tavsifdan, pand-nasihatdan xoli syujetli she'rlar tashkil etadi.

«Shoir she'rlarining muvaffaqiyati shundaki, - deb yozgan edi O'.Rashid, - ular umumiylikdan, quruq ritorikadan uzoq bo'lgan syujetli va voqeaband she'rlardir. Ma'lumki, voqeabandlik kichik kitobxon diqqatini tutib turishi, tasvirga olingen voqe-hodisaning qanday yakun topishini bilishga bo'lgan qiziqishiga javob olishi, xatti-harakatlaridagi tinimsizligi, tezkorligiga monandligi bilan ham o'quvchi ruhiyatiga yaqin turadi. Bunday she'r bolani zeriktirmaydi. U xuddi hikoya yoki ertak kabi bola ongiga, xotirasiga oson singadi.

Sinchiklab ko'zdan kechirilsa, shoir she'rlaridagi voqeabandlik xalq og'zaki ijodining samarali ta'siri natijasi ekanini fahmlash qiyin emas. Darhaqiqat, Shukur Sa'dulla qator xalq ertaklarini qayta ishlab, «Dumsiz tulkilar», «Ikki sandiq», «Uch tulki», «Qarg'avoy», «Tulki bilan turna» nomlari ostida chop ettirishi ijodkorning badiiy mahorati takomilida muhim o'r'in tutadi. Sh.Sa'dullaning Jahon ertakchiligi, xususan, D.X. Andersen va S.Ya. Marshak ijodiy uslubiga hamohang yaratgan «Ikki donishmand», «Ayyor chumchuq», «Laqma it», «Och bo'ri, sho'x qo'zi va qirchang'i» kabi talay ertaklari voqeadan voqeа keltirib chiqarish asosida qurilgan esa-da, milliy mentalitetimizga oid tarbiyaviy g'oyalar talqiniga alohida e'tibor qaratilgandir. Shoирning «Tulki bilan g'ozlar», «Mitti», «Uloqcha», «Bola bilan to'rg'ay», «Chuchvara qaynaydi», «To'rt fasl» kabi she'rlarida folklor asarlariga xos raxonlik, ona tabiatining o'zgaruvchan manzaralariga hayrat nigohi bilan boqqan bolakayning injatuyg'ulari kitobxon tasavvuriga yorqin ranglar olib kirishi bilan ajralib turadi. Adibning «Kachal palvon», «Yoriltosh» asarlari ham xalq og'zaki ijodidan ruhlanib yozilgan. Filologiya fanlari doktori O.Safarov: «Xalq ertaklari ustidagi qizg'in amaliy ijodiy faoliyat jarayonida Shukur Sa'dulla ko'p narsa o'rgandi, xalq ijodiy laboratoriyasining aslahalari bilan qurollana bordi, xalq tiliga hos donolik, burrolik, samimiylilik qochirimdorlik kabi barcha sirlardan voqif bo'la bordi», deganida tamoman haqdir.

Bolalar adabiyoti xususida so'z yuritganda uning tarbiyaviy vazifani bajarishga hamisha alohida urg'u beriladi. Aslida shunday bo'lishi tabiiy. Negaki, u nima yaxshi-yu, nima yomonligini tushunishga, hayotni va o'zligini



anglashga, axloq-odobga o'rgatadi. Bu xususiyat, shubhasiz Shukur Sa'dulla asarlariga ham taalluqlidir.

Tasvirda qisqalik, ravnlik ijodkorning kichik hikoyalariga ham xos yetakchi xususiyatdir. Ular, hatto, hajm jihatidan kichik she'rغا teng bo'lib, mag'zi to'q va u yoki bu masala haqida kitobxonda yaxlit tasavvur uyg'otishga qodir. Masalan, chol bilan bolaning suhbat shaklidagi «Anqov» hikoyasi boryo'g'i bir necha satrdan iborat. Ammo uning katta-yu kichikka xos anqovlik illati haqida ma'lum tushuncha berishiga shubha yo'q. Har qanday illatning bolalikdan boshlab shakllanishi nazarda tutilsa, bu xildagi asarlarning tarbiyaviy qimmati yanada ortadi. Yozuvchining «Qaysar bolalar», “Laqma it” kabi talay hikoyalarida ham anqovlik, yalqovlik, o'jarlik, laqmalik, vaysaqilik, ayyorlik illatlari yorqin ko'rsatiladi.

Quvnoq humor va satirik ruh bilan yozilgan mazkur hikoyalar bolalar ruhiyatida aniq-tiniq ko'zga tashlanadigan nuqsonlarning mo'ljalga to'g'ri olinganligi bilan kichik kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Adibning «Komandirning boshidan kechirganlari», «Kachal polvon», «Aziz qishlog'im» qissalari o'zbek va rus tillarida qayta-qayta nashr qilingan. «Yoriltosh», «Afsonani yenggan qiz» ertak-pyesalari uzoq yillar teatrlarimiz sahnasidan tushmay kelgan.

Jahon bolalar adabiyoti namoyondalaridan G.X.Andersen, A.Pushkin, S.Marshak, S.Mixalkov, K.Chukovskiyarning she'r va ertaklari, L.Tolstoy, B.Jitkov, V.Oseevalarning qissa va hikoyalari Shukur Sa'dulla tarjimasida nashr qilingan.

Jahon bolalar adabiyotidan qilingan tarjimalar Sh.Sa'dulla ijodiga bir umr turki berib kelgan omillardandir. Jumladan, “Ayyor chumchuq”, “Laqma it” ertaklarida S.Marshakning “Ahmoq sichqoncha haqida ertak” asari syujeti qurilishining ijodiy ta'siri aniq-ravshan sezilib turadi. Ingliz folklori ta'sirida yaratilgan “Ahmoq sichqoncha ...” ertagida kichik kitobxon ona sichqonning turli jonivorlarga murojaati orqali o'sha jonivorlarga xos yetakchi xususiyatlar bilan tanishtirilsa, “Ayyor chumchuq” ertagida oyog'iga tikan kirgan eshakning, “Laqma it” ertagida izg'irinda sovqotgan itning turli jonivorlarga murojaati misoldida o'zlariga tegishli xulosa chiqaradilar.

Sh.Sa'dulla- serqirra ijodkor. Q.Hikmatning obrazli ta'rifi bilan aytganda, Shukur Sa'dulla o'zbek bolalar adabiyotining «kapitanlaridan» biri edi. Uning asarlarasi hali juda ko'p avlodlarni chin insonlikka o'rgatadi, vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga xizmat etadi.



«Biz, - deb yozgan edi Qudrat Hikmat o'z safdoshi haqida, - uning qiyofasida to'rtda Shukur Sa'dullani ko'ramiz: Shukur Sa'dulla – shoir, Shukur Sa'dulla - dramaturg, Shukur Sa'dulla - prozaik, Shukur Sa'dulla - tarjimondir.

Katta-kichik hamkasblar unga havas qilib, tez-tez uchrashishga oshiqamiz. Maktablarda, bog'chalarda, talabchan kitobxonlar behad shodlanib: - Xush kelibsiz, Shukur aka! - deb kutib olishadi».

Biz esa yozuvchi bilan uning asarlari orqali uchrashamiz. Bu uchrashuv har bir kitobxon uchun, shubhasiz, zavqlidir.

#### **Adabiyotlar:**

1. O'zbek bolalar adabiyoti analogiyasi, I jild. – Toshkent: Cho'lpon, 2017.
2. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: - Cho'lpon, 2012.

#### **РЕЗЮМЕ**

Ушбу мақолада Shukur Sa'dulla she'riyatida so'z dinamikasi va estetik ta'sirchanlik масалалари ўрганилган. Шунингдек, shoir she'rларидаги voqeabandlik xalq og'zaki ijodining samarali ta'siri natijasi ekanini айтиб ўтилган.

#### **РЕЗЮМЕ**

В данной статье исследуются вопросы динамики слова и эстетического впечатления в поэзии Шукура Садуллы. Отмечалось также, что событийный характер стихов поэта является результатом действенного влияния народного творчества.

#### **SUMMARY**

This article explores the issues of word dynamics and aesthetic impression in the poetry of Shukur Sadulla. It was also noted that the eventful nature of the poet's poems is the result of the effective influence of folk art.